

O'RTA OSIYODA MILLIY HUDUDIY CHEGARALANISH O'TKAZILISHINING MAQSAD VA MOHIYATI

Abduraximov Sanjar Abdurasul o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, Tarix yo'naliishi 2 kurs Magistratura talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15673081>

Annotatsiya. Ushbu maqolada sovet hokiiyati tomonidan O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazishning maqsadi, mohiyati, uning sabablari hamda oqibatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Sovet, milliy-hududiy chegaralash, Turkiston, bolshvek, panturkizm, panislomizm, bosmachilik.

RKP (b) MKning Tashkiliy byurosi o'zining 1924-yil 31-yanvardagi majlisida boshqa masalalar bilan bir qatorda Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarining milliy-hududiy chegaralanishi to'g'risidagi masalani ham ko'rib chiqdi va Y.E.Rudzutakka mazkur respublikalarning mas'ul xodimlari bilan birqalikda bu g'oyani amalda qanday ro'yobga chiqarish mumkinligini oldindan muhokama qilib ko'rishni topshirdi. Mazkur g'oyaning paydo bo'lishi o'zining ilk tarixiga ega bo'lib, u XX asr 20-yillarning dastlabki davridagi voqealar bilan chambarchas bog'liq edi. Biroq, haqiqiy sabablari o'z ildizlari bilan ancha ilgariga borib taqaladi. Bolsheviklar partiyasining markaziy organi qarori bilan chorizmning Turkiston mustamlakasini boshqarish sohasidagi imperiyacha siyosati prinsiplariga sodiqligini isbotladi, mazkur siyosat Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizomga (1891-yil) muvofiq o'tkazib kelinayotgan edi.

O'rta Osiyoning ma'muriy-hududiy xaritasini qaytadan tuzish borasidagi o'z miqyoslari va oqibatlari bilan o'lkan bo'lgan bolshevikcha bu harakat chorizm nizomining takomillashgan shaklini amalda ruyobga chiqarish uchun qo'yilgan dastlabki qadam edi.

Ma'lumki, Rossiya rahbariyati o'sha vaqtida milliy kommunistlarning o'lka xalqlari davlatchilagini turkiylar birligi prinsiplari asosida ko'rish haqidagi da'volarini rad etib, bundan keyin ham ularni bo'lib yuborish va Rossiya tarkibida ayrim avtonom, milliy davlat tuzilmalari tashkil etish yo'lidan borish niyatini qat'iy bayon qilgan edi.

Markazning yuqori siyosiy rahbariyati uchun Turkistonni bo'lib yuborish, uni yagona davlat tuzilmasi sifatida yo'q qilish g'oyasi ustivor bo'lib qoldi. U Turkistonni saqlab qolish o'zining imperiyacha maqsadlariga xavf tug'diradi deb hisoblardi, chunki "Turkiston" unda yashovchi barcha halqlar ongida ularning tarixiy Vatani ramzi sifatida tushunilardi, uning mustaqilligi va ozodligi uchun kurashda doimo birlashtiruvchi ta'sirchan omil bo'lib kelgan edi. 1920-yil 20-iyunda RKP(b) MK, Siyosiy byurosi majlisida Turkiston masalalari yuzasidan qabul qilingan to'rtta qaror keyinchalik "RKP(b) ning Turkistondagi asosiy vazifalari to'g'risida", degan umumiyy nom bilan mashhur bo'lib, alohida bandida Turkistonga "Turkistonning ma'muriy okruglarini uning milliy tarkibiga muvofiq qayta taqsimlashga kirishish" topshirilgan edi.

1920-yil sentabrda Sovetlarning IX Umumturkiston syezdi TASSR Konstitusiyasini tasdiqladi, uning loyihasini Turkkomissiya tayyorlagan edi.

Konstitusiyada aytishicha, Turkiston unda yashovchi asosiy xalqlarning, ya'ni: turkmanlar, o'zbeklar, va qirg'izlarning muxtor respublikasi deb e'tirof qilinib, asosiy milliy guruhlar, iqtisodiy va maishiy ukladi bo'yicha viloyatlarga bo'linadi va RSFSRning Turkiston Avtonom Respublikasi degan nom bilan ataladi. Xullas, Turkiston aholisining bo'linishi, uning etnik nomi bo'yicha ma'muriy-hududiy, tuzilishi Konstitusiya asosida mustahkamlandi.

Bolsheviklar O'rta Osiyodagi xalqlarni milliy guruhdan ajratish uchun ularning etnik jihatdan o'xshashlarini birlashtirishni lozim ko'rdi va bu maqsadda tip vositasidan foydalandi.

Bolsheviklarning bu sohadagi faoliyati aniq yo'naliishga ega bo'lib, turkiy tilning ayrim laxjalarini isloq qilish va ular negizida har bir milliy tuzilma (o'zbek, turkman, qozoq va hokazo) mo'ljallangan o'z milliy tillarini yaratishdan iborat edi. 1922-yildayoq o'zbek tili va grammatikasi bo'yicha birinchi o'lka syezdi o'tkazildi, u o'zbek tilini sun'iy ravishda klassik yevropacha grammatika tizimiga keltirishga asos soldi. Ana shu grammatik so'z yasovchi modellar ta'sirida so'z iboralari va grammatik ko'rinishning yangi shakllari vujudga keldi, bu hol o'zbek tili leksikasi asosini tashkil etuvchi umumturkiy leksikaning muayyan darajada o'zgarishiga ta'sir qilmay qolmadi. Ayni vaqtda yagona turkiy til bo'lmanidek, yagona turkiy madaniyat ham bo'lmaydi degan shior ostida til islohoti o'tkazilishi bilan bir qatorda O'rta Osiyo xalqlari madaniy merosining asosiy targ'ibotchilari bo'lgan islom va uning tashkilotlariga qarshi kompaniya avj oldirib yuborildi.

1924-yil 12-iyulda RKP(b) MK, Siyosiy byurosi O'rta Osiyo respublikalarining milliy-davlat chegaralanishi to'g'risida maxsus qaror qabul qildi. Kreml loyihasini amalga oshirish hujum va tazyiq o'tkazishdan iborat sinalgan usullar bilan bajarildi. Milliy davlat chegaralanishi o'tkazilishi arafasida hech qanday jiddiy etnografik tadtiqotlar, ilmiy-tarixiy va sotsiologik ishlanmalar amalga oshirilmadi, qilinayotgan harakatning o'ziga xos g'oyat xilma-xil oqibatlari hisobga olinmadi, jamoatchilik fikri o'rganilmadi.

Chunonchi, Sovetlarning 1924-yil sentabrdagi V Butunbuxoro qurultoyida Buxoro MIK hisobotida ochiqdan-ochiq ma'lumotlar yo'qligi tufayli aholini millatiga qarab taqsimlashni aniq ko'rsatib bo'lmaydi, deb ta'kidlangan edi.

Bunday yondashuv natijasida misli ko'rilmagan milliy-hududiy bo'linishdan iborat murakkab jarayonlar o'zboshimchalik bilan jadallashtirildi, bo'lajak davlat tuzilmalarining chegaralari ko'z bilan chandalab aniqlandi. Bularning hammasi avj oldirilayotgan kompaniyaning boshlang'ich bosqichidayoq milliy-etnik vaziyatni junbushga keltirdi, u yoki bu hudud uchun yakka-yolg'iz bo'lmanan millatlararo mojarolarni, to'qnashuvlarni keltirib chiqardi. Madaniy-tarixiy birlikka doir qadimgi an'analar shiddat bilan yemirib tashlana boshladi.

Milliy-davlat chegaralanishi yakunlari bo'yicha Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalari ornida O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, shuningdek, Tojikiston Muxtor Respublikasi, Qozog'iston va Qoraqalpog'iston muxtor viloyatlari tashkil topdi, keyinchalik ular sotsialistik respublikalar maqomiga ega bo'ldi.

Mustabid tuzum davrida yangi milliy respublikalar tashkil topganligi fakti tantanali ravishda ko'rsatib o'tildi. Masalan, o'zbek xalqi tarixda birinchi marta o'z milliy davlatchiligiga ega bo'ldi, deb ta'kidlanardi. Lekin o'zbek davlatchiligi hali qadim zamonlardayoq vujudga kelganligi haqida lom-mim deyilmasdi.

Milliy-hududiy chegaralanish masalasi 1924-yil 5-aprelda RKP(b) MQ Siyosiy byurosida, 11-mayda RKP(b) MQ O‘rtta Osiyo byurosi komissiyasida ko‘rib chiqildi. Unda O‘rtta Osiyo respublikalarida milliy chegaralanish loyihasini tayyorlovchi maxsus komissiya tuzildi. Loyerha RKP(b) MQ O‘rtta Osiyo byurosining 1924-yil 2-iyundagi yig‘ilishida muhokama etilib, ma’qullandi. Bundan norozi bo‘lgan mahalliy aholi vakillari, xususan, Xorazm respublikasining bir guruh mas’ul xodimlari, chunonchi, XKP MQ kotibi Odinayev, ichki ishlar noziri Abdusalomov, Yoqubov, Turkiston va Buxoro vakillari: Sultonbek Xo‘janov, Sanjar Asfandiyorov va boshqalar yagona Turkistonni bo‘lib tashlash maqsadga muvofiq emas, deb e’tiroz bildirdilar. Ular Turkiston xalqlari birligini saqlab qolishga qaratilgan “O‘rtta Osiyo federatsiyasini tuzish to‘g‘risida” taklif kiritdilar.

Shuningdek, 1924-yil 8-mayda RKP(b) Markaziy Qo‘mitasiga “Xorazmda milliy masalani hal etish to‘g‘risida xat” kelib tushadi. Bu xatda ham Xorazm respublikasini bo‘lib yuborish maqsadga muvofiq emas, deyilgan edi. Biroq mahalliy xalqlarning talab va takliflari inobatga olinmadidi. Aksincha, 1924-yil 12-iyunda RKP(b) MQ Siyosiy byurosi “O‘rtta Osiyo respublikalarini milliy chegaralash to‘g‘risida”gi masalaga yana qaytib, uni o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

1924-yil 15-iyulda O‘rtta Osiyo byurosi milliy chegaralanish loyihasini tayyorlash va 1924-yil oktabr oyida uni o‘tkazish zarur, degan qat’iy xulosaga keldi. Shu maqsadda maxsus Markaziy hududiy komissiya tuzilib, joylarda tashviqot-targ‘ibot ishlari kuchaytirib yuboriladi.

Komissiya 1924-yil sentabr oyi boshlarida o‘z ishini asosan tugallaydi. 1924-yil 25-sentabrdi RKP(b) MQ Siyosiy byurosi, 9- va 11-oktabrda RKP(b) Markaziy Qo‘mitasi bu masalani ko‘rib chiqib, milliy chegaralanishni rasmiylashtirishni maqsadga muvofiq deb topadi.

Bu qaror 14-oktabrda SSSR BMIQ tomonidan ham ma’qullanadi. Shu tariqa, sovet hukumati, RKP(b) MQ va uning joylardagi mahalliy tashkilotlarining 1920-1924-yillar davomida O‘rtta Osiyoda olib borgan, xalqqa yolg‘on va’dalar berishni ko‘zda tutgan “Lenincha milliy siyosat”ni hayotga tatbiq etish bobidagi amaliy ishlari yakun topdi.

Buning natijasida o‘lkanning tarixan tarkib topgan o‘ziga xos milliy xususiyatlari, hududiy yaxlitligi zavol topdi. Uning hududlarini kichik-kichik milliy bo‘laklarga bo‘lish ishlari yakuniga 1924-yil 24-oktabrda RKP(b) MQ plenumi so‘nggi nuqta qo‘ydi.

Unga ko‘ra O‘rtta Osiyodagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o‘rnida O‘zbekiston SSR (O‘zSSR), va Turkmaniston SSR, shuningdek Tojikiston ASSR (O‘zSSR tarkibida), Qoraqalpoq va Qoraqirg‘iz (aslida qirg‘iz) avtonom viloyatlari tuzilishi kerak edi.

Nihoyat, 1924-yilning 27-oktabrida bo‘lib o‘tgan SSSR BMIQ II sessiyasida Turkiston ASSR MIK favqulodda sessiyasi, Butunbuxoro va Butunxorazm xalq vakillarining V qurultoylari asosida O‘rtta Osiyo hududida milliy respublikalar tuzish to‘g‘risida maxsus qaror qabul qilindi. Sessiyada BSSR Nozirlar Sho‘rosining raisi Fayzulla Xo‘jayev O‘rtta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o‘tkazilishi to‘g‘risida nutq so‘zladi.

Shunday qilib 1924-yil sentabr-oktabr oylarida O‘rtta Osiyoda o‘tkazilgan milliy-hududiy chegaralanishi O‘rtta Osiyo respublikalari, RSFSR va SSSRning oliv organlari tomonidan qonuniy kuchga kirdi va O‘rtta Osiyo hududidagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o‘rnida oltita milliy davlat birlashmalari tashkil etildi.

Ular - O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR (1929-yilgacha), RSFSR tarkibida Qoraqirg'iz (Qirg'iziston) muxtor viloyati, RSFSR tarkibida Qozog'iston ASSR, Qozog'iston ASSR tarkibida Qoraqalpoq muxtori viloyati.

Keyinchalik Qoraqalpog'iston ASSR, 1936- yildan O'zSSR tarkibiga kirgan. O'rta Osiyo respublikalarida milliy-hududiy chegaralanish shu tarzda o'z nihoyasiga yetdi. Natijada, yagona Turkiston xalqlari bir-biridan sun'iy ravishda uzoqlashtirildi. Bu hol sovetlarga o'lkada o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi. Sovet hokimiyati yillarida (1925-1991) O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalarining hududi va chegarasi Moskva xohishi va talabiga ko'ra doim o'zgarib turgan. Bu o'zgarishlardan eng ko'p jabrni o'zbek xalqi ko'rgan.

Sovet Ittifoqi parchalanishi va qulashi natijasida mintaqada 5ta mustaqil davlatlar (Qirgiziston, Turkmaniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston) tuzildi va ular Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tarkibiga kirdi. 1992-yil mart oyida BMT tarkibiga qabul qilingan Markaziy Osiyodagi yangi davlatlar o'zlarining 1991-yildagi hududlari asosida o'zaro chegaralarni rasman tan olishdi hamda xalqaro huquq normalari asosida bu masalani hal qilish to'g'risida kelishib oldilar.

Biroq Markaziy Osiyo davlatlarida o'tgan 30 yildan ortiq vaqt mobaynida avtoritar rejimlarning mustahkam qaror topganligi va boshqa holatlar natijasida bu masalada nafaqat O'zbekiston Respublikasida, balki boshqa qo'shni davlatlarda ham ilgariga siljish kuzatilmadi.

2017-yildan boshlab O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston bilan chegaralar ochilganligi, hatto ularga mamlakatimiz hududining bir qismi berilganligi va boshqa masalalarda qo'shni davlatlar (ayniqsa, Qirg'iziston va Tojikiston)ga ancha yon bosganligi oqibatida bugungi kunga kelib O'zbekiston bilan mintaqadagi qolgan davlatlar o'rtasidagi munosabatlар barqarorlashdi.

2022-yil 22-dekabr kuni ikki davlat prezidentlari tomonidan O'zbekiston-Qozog'iston davlat chegarasini demarkatsiya qilish to'g'risidagi bitim imzolanishi bilan chegarani qonuniy rasmiylashtirish jarayoni yakunlangan edi. Chegarani belgilash 2001 va 2022-yillardagi davlat chegarasi to'g'risidagi shartnomalar asosida amalga oshirildi.

Demarkatsiya bo'yicha muzokaralar 2003-yilda boshlangan. Yerga chegara belgilarini o'rnatish bo'yicha dala ishlari 2004-yildan 2021-yilgacha davom etdi.

O'tgan 19 yil davomida demarkatsiya komissiyasining 100 ta, demarkatsiya bo'yicha qo'shma ishchi guruhining 34 ta yig'ilishi bo'lib o'tdi. Demarkatsiya ishlari natijalariga ko'ra, chegaralarning uzunligi 2356 km ni tashkil etdi, chegara chizig'iga 1301 ta chegara belgilari o'rnatildi.

Chegaralarni belgilash natijalari ushbu bitimning ajralmas qismi bo'lган va unga ilova sifatida tuzilgan 8 ming varaqdan ortiq hajmdagi hujjatlarda aks ettirilgan.

Qozog'iston bilan O'zbekiston 2023-yil 28-martda chegara demarkatsiyasi bo'yicha bitimni ratifikatsiya qildi. Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jumart Tuqayev "Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasida Qozog'iston-O'zbekiston davlat chegarasini demarkatsiya qilish to'g'risidagi bitimni ratifikatsiya qilish haqida"gi qonunni imzoladi.

O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston chegaralar tutashgan nuqtalarini 2023-yil aprel oyi oxirlarida muhokama qildi.

Uch mamlakat hukumatlari delegatsiyalari 4 kun davomida Qirg'izistonning Batken shahrida uchrashuvlar o'tkazib, chegaralarning uch tomonlama tutashuv nuqtalariga aniqlik kiritish bo'yicha fikr almashdi. 2023-yil 25-29 aprel kunlari Qirg'izistonning Batken shahrida Qirg'iziston, O'zbekiston va Tojikiston hukumatlari delegatsiyalarining uchrashuvlari bo'lib o'tdi.

2022-yil noyabr oyida O'zbekiston va Qirg'iziston prezidentlari chegara bo'yicha kelishuvlarni imzoladi, shundan so'ng ikki mamlakat o'rtaida chegara masalasida hech qanday kelishmovchilikka o'rin qolmagani e'lon qilindi. Shuningdek, O'zbekiston-Tojikiston chegarasining katta qismi 2018-yil 9-martdagi shartnoma asosida delimitatsiya qilingan.

REFERENCES

1. O'zbekiston SSR tarixi. I.Mo'minov tahriri ostida. – T.: Fan, 1971.
2. O'zbekistonning yangi tarixi: O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinci kitob. – .:Sharq, 2000.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston, 2006.
4. Rajabov Q. 1924: Turkistonning parchalanishi. – T.: Fan, 2024.